

UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMIDA YANGI AVLOD
DARSLIKLARINING QO'LLANILISHI

Eshmaxmatova Mohigul

Oriental universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lism oluvchilarni ta'lism metodlarining mazmun-mohiyati, ularning turlari va ularga turlicha yondashuvlar hamda ularni takomillashtirish yo'llari, ta'lism vositalari, shuningdek, ta'lism uskunaviy didaktik asoslari bilan tanishtirish yoritib borilgan va ta'lism tizimida yangi avlod darsliklarining qo'llanilishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: : ta'lism, metodika, ta'lism vositalari, didaktika, mashg'ulot, mutafakkirlar, faoliyat, iroda sohasi, zamonaviy usullar, interfaol usul.

APPLICATION OF NEW GENERATION TEXTBOOKS IN GENERAL
SECONDARY EDUCATION SYSTEM

Eshmakhtova Mohigul

Graduate student of Oriental University

Abstract: In this article, the content and essence of educational methods, their types and different approaches to them, as well as the ways of their improvement, educational tools, as well as the instrumental didactic foundations of education, are illuminated the use of generational textbooks is discussed.

Key words: education, methodology, educational tools, didactics, training, thinkers, activity, field of will, modern methods, interactive method.

KIRISH

Maktablardagi sifatli ta'lism ko'p jihatdan yaratilayotgan darsliklarga bog'liq. Ya'ni u ta'lism standartlariga javob berish bilan birgalikda o'quvchini qiziqtirish va fanga bo'lgan mehrni uyg'otishi kerak. Boshlang'ich sinf darsliklarining tubdan yangilangani nafaqat o'quvchi va ustozlarni, balki ota-onalarni ham quvontirdi. Ammo ular borasidagi tanqidiy fikrlar ham yo'q emas. Xo'sh, 2023/2024-o'quv yilida taqdim etilgan darsliklar avvalgilaridan nimasi bilan farq qiladi? Bu savolga javob olish maqsadida soha mutaxassislari va ota-onalarning fikrlari bilan o'rtoqlashdik.

Ta'lism jarayonining muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki qo'llanilayotgan metodlar va vositalar samaradorligiga bog'liq bo'lib, u ta'lism nazariyasida asosiy o'rnlardan birini egallaydi. "Metod" — yunoncha "métodos" – "yo'l" degan so'zdan paydo bo'lib, u, tadqiq qilish ma'nosini anglatadi. Ta'lism metodi



ta'lism jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyatdir.

Bu yil taqdim etilgan boshlang'ich sinf darsliklari o'qituvchilar uchun yangilik bo'ldi. O'quvchilar kitoblar berilgan kun qanchalik quvonishganini so'z bilan ta'riflab berib bo'lmaydi. Haqiqatan ham hozirgi kitoblar avvalgilaridan ancha ustun. Kitobning ko'rinishi va rang-barang suratlari har bir o'quvchini o'ziga qaratoladi. Avvalgi kitoblar ancha qalin va og'ir edi. Ayni o'sish davridagi bola uchun bu qator qiyinchiliklarni tug'dirardi. Yangi darsliklarning choraklarga bo'lingani o'quvchini yil davomida ortiqcha yukni ko'tarib yurishdan xalos qildi, — deydi poytaxtimizdagi 294-maktabning oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi Norgul Ikromova.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 726-qaroriga muvofiq ta'lism muassasalarining matbaa mahsulotlari texnik reglament asosida ishlab chiqariladi. Yangi boshlang'ich sinf darsliklari ana shu texnik reglamentning eng maksimal darajasidan ham yuqori sifatda ishlab chiqarilgan. Bu o'z navbatida darslikdan uzoq yil foydalanishga sabab bo'ladi. Ular sifati va chidamlilik darajasi bo'yicha Yevropa poligrafiyasi standartlariga to'liq javob beradi. Darslikning vazni, o'lchami, shriftlari bo'yicha reglament tasdiqlangan va shu talablardan kelib chiqqan holda ishlab chiqarilgan, — deydi Ta'limgi rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi direktori Vohid Hamidov.

Kommunikasiya (muloqot ko`nikmalari).

— Ushbu darsliklar quruq ma'lumotlarni yodlatish, yoki shunchaki o'qish-yozishni o`rgatish bilan cheklanmaydi. Ular orqali o'quvchilar nafaqat fanlarni, balki 21-asrda zarur bo`lgan hayotiy ko`nikmalarni ham o`rganadi.

— Shuningdek, darsliklar bolalarga o`yin orqali ta`lim berishga ham moslashgan. Ya`ni bolalar psixologiyasi hisobga olingan. O`quv-metodik komplekslar Android, iOS platformalarida ongni o`stiradigan o`yinlar to`plamiga ega.

— Darslikdagi ma'lumotlar rang-barang rasmlar, grafikalar, sodda matnlar orqali berilgan. U o'quvchini zeriktirib qo`ymaydi, aksincha yanada qiziqtiradi.

— Boshlang`ich sinflar uchun taqdim etilgan darsliklarning bir qismi kengaytirilgan reallik texnologiyalaridan foydalangan holda ishlab chiqilgan. Hozirgi bolalar zamonaviy texnologiyalarni bizdan yaxshiroq tushunadi. Shu sababli gadgetlar orqali ta`lim olish ularni yanada fanga qiziqtiradi;

— Estudy elektron ta`lim platformasi ishlab chiqilgan. U turli fanlardan olingan bilimlarni mustahkamlash uchun 300 dan ziyod ongni oshiradigan o`yinli vazifalarni o`z ichiga oladi. Platformadan darsda ham, bo'sh vaqtida uyda ham foydalanish mumkin.

— Darsliklarni ishlab chiqishda xalqaro dasturlar (PISA, PIRLS, TIMSS, EGMA, EGRA) talablari to'liq inobatga olingan. Finlyandiyadagi nufuzli ta`lim kompaniyasi ekspertlari tomonidan tekshiruvdan o'tkazilgan va sertifikat olingan.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdag'i ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lim metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining deyarli hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslarini hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lim metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

XULOSA

Umumiyl o'rta ta'lim tizimida yangi avlod darsliklarining qo'llanilishi o'quv jarayonini yanada samarali va sodda qilish uchun katta ahamiyatga ega. Yangi avlod darsliklarining qo'llanilishi quyidagi muhim nuqtalarga e'tibor berishni talab qiladi:

Texnologiya va interaktivlik: Darsliklarning interaktiv xususiyatlarga ega bo'lishi, o'quvchilarni faol tarzda qatnashishlari va darsni yangi usullar bilan o'rganishlari uchun muhimdir. Videolar, interaktiv testlar, animatsiyalar va boshqa texnologik vositalar o'quvchilarni qiziqtirish va sababli o'rganishini oshirishga yordam berishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi" T., 2000 y O'. Asqarova, M. Nishonov, M. Xayitbaev "Pedagogika" T., "Talqin" 2008 y A. To'xtaboev, A. Eraliev "Tashkiliy xatti-xarakatlar" Andijon, "Xayot" 2001 y R. Mavlanova "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2004 y
2. M.To'xtaxo'jayeva "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2010 y
3. O.U.Avlayev, S.N. Jo'rayeva, S.P.Mirzayeva "Ta'lim metodlari" o'quv-uslubiy qo'llanma, "Navro'z" nashriyoti, Toshkent – 2017
4. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 41-43).
5. Davrenov, J., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'RGANISHDA XVI-XVIII ASRLARDA YAPONIYA DAVLATI TARIXINI AHAMIYATI. Scientific progress, 1(6).